

84Гем  
D Ç-84



LASH-LUSHVOY ~ USHOГ'OU  
ХЛАМУШКА ~ ХАВРОШЕЧКА





*Aka-uka Grimmlar*  
*Tarjimon Abdurahmon Akbar*  
**Lash-Lushvoy**




*Братья Гримм*  
*Перевод Г. Петникова*

**Хламушка**



“DAVR NASHRIYOTI”  
Toshkent – 2012

ГДБ Узбекистан  
ИНВ. № 336330



**N**ihoyatda qashshoq bir tegirmonchi yashagan ekan. Uning go'zal qizi bor ekan. Tegirmonchi bir safar qirol bilan hamsuhbat bo'lib qolibdi. O'ziga nisbatan qirolning hurmatini oshirish uchun, unga:

- Mening bir qizim bor. U o'z ishining mohir ustasi, hatto poxoldan oltin kalava yigira oladi, – deb yuboribdi.


Qirol tegirmonchiga qarab:

- Juda soz. Qizing, o'zing aytganingdek, ishiga mohir bo'lsa, uni ertaga qasrga olib kel, o'z san'atini namoyish etsin, – debdi.

Tegirmonchi qizini qirol huzuriga olib kelibdi.

Qirol uni poxol bilan to'ldirilgan xonaga boshlab kirib, qo'liga charx bilan urchuq tutqazibdi:

- Ana endi ishga kirish. Agar tonggacha poxoldan oltin kalava yigirib bermasang, tirik qolmaysan, – debdi.



**Ж**ил-был на свете мельник, и был он бедный-пребедный, но была у него красавица-дочь. Случилось ему однажды вести с королём беседу, и вот, чтоб вызвать к себе уважение, говорит он королю:

— Есть у меня дочка, и такая она искусница, что умеет из соломы золотую пряжу прясть.

Говорит король мельнику:

— Это мне нравится.


Если дочь у тебя такая искусница, как ты говоришь, то приведи её завтра ко мне в замок: пусть покажет мне своё искусство.

Привёл мельник девушку к королю, отвёл её король в комнату, полную соломы, дал ей прялку, веретено и сказал:

— А теперь принимайся за работу. Но если ты к утру не перепрядёшь эту солому в золотую пряжу, то не миновать тебе смерти.







U qizni xonada yolg'iz qoldirib, eshikni qulflabdi. Tegirmonchining bechora qizi nima qilishni bilmabdi. Hayotimni qanday qilib saqlab qolaman – axir poxoldan oltin kalava yigirishni bilmayman-ku, deb xayolga tolibdi. Taqdirini o'y-lab qo'rqqanidan yig'lab yuboribdi.

Kutilmaganda eshik ochilib, xonaga kichkina odamcha kirib kelibdi.

– Salom, tegirmonchining qizi. Nimaga bo'zlayapsan? – deb so'rabdi u qizdan.

– Oh, – deb javob beribdi bechora qizgina. – Poxoldan oltin kalava yigirib berishim shart ekan. Buni qanday uddalayman, bilmayman.

– Agar sen uchun kalava yigirib bersam, evaziga menga nima berasan? – debdi kichkina odamcha.

– Munchog'imni beraman, – debdi qiz.

Odamcha uning qo'lidan munchog'ini olib, charx yoniga o'tirib poxolni yigira boshlabdi. Urchuqni uch marta aylantirib, oltin kalava tayyorlabdi. Keyin boshqasini qo'yibdi. Uch marta aylantirib yana to'la kalava tayyorlabdi.



Запер он её на ключ, и осталась она там одна. Вот сидит бедная мельникова дочка, не знает, что ей придумать, как свою жизнь спасти, – не умела она из соломы золотую пряжу прясть. И стало ей так страшно, что она наконец заплакала.

Вдруг открывается дверь, и входит к ней в комнату маленький человечек и говорит:

– Здравствуй, мельникова дочка. Чего ты так горько плачешь?

– Ах, – ответила девушка, – я должна перепрясть солому в золотую пряжу, а я не знаю, как это сделать.


А человечек и говорит:

– Что ты мне дашь за то, если я тебе её перепряду?

– Своё ожерелье, – ответила девушка.

Взял человечек у неё ожерелье, подсел к прялке, и – турр-турр-турр – три раза обернётся веретено – вот и намотано полное мотовило золотой пряжи. Вставил он другое, и – турр-турр-турр – три раза обернётся веретено – вот и второе мотовило полно золотой пряжи, и так работал он до самого утра и перепрял всю солому, и все мотовила были полны золотой пряжи.





U ertalabgacha ishlab barcha poxolni yigirib oltin kalavalarga aylantiribdi. Tong otishi bilan xonada qirol paydo bo'libdi. U oltin kalavalarni ko'rib ham ajablanibdi, ham quvonibdi. Yuragi yanada ko'proq oltinga ega bo'lish ishtiyoqida yonibdi. Tegirmonchining qizini ikkinchi xonaga boshlab boribdi. U birinchi xonaga qaraganda ancha katta bo'lib, poxol ham shunga yarasha ko'p ekan. Qirol qizga: «Agar yashayman desang, barcha poxolni ertalabgacha yigirasan», – deb farmoyish beribdi.

Qiz bu kulfatdan qanday qutulishni bilmabdi. Birdan yana eshik ochilib, kichkina odamcha ichkariga kiribdi-da, qizdan:


– Poxolni yigirib oltinga aylantirib bersam, evaziga menga nima berasan? – deb so'rabdi.


– Barmog'imdagi uzugimni beraman, – debdi qiz.

Odamcha uzukni olib, urchuq yigira boshlabdi. Ertalabgacha poxolning hammasini oltin kalavaga aylantirib chiqibdi. Qirol oltin kalavalarni ko'rib, sevinib ketibdi. Biroq unga bular ham ozdek tuyulibdi. U tegirmonchining qizini poxol to'lib-toshib yotgan eng katta xonaga olib boribdi.

– Ertalabgacha barini yigirasan. Uddasidan chiqsang, senga uylanaman, – debdi qizga.

«Tegirmonchining qizi bo'lsa ham, – o'ylabdi qirol, – bundan badavlat qizni dunyoni kezib topa olmayman».





Только солнце взошло, а король уже явился. Увидел он золотую пряжу, удивился и обрадовался, но стало его сердце ещё более жадным к золоту. Велел он отвести мельникову дочку во вторую комнату, а была она больше первой и тоже полна соломы, и приказал он девушке, если жизнь ей дорога, всю солому за ночь перепрясть.

Не знала девушка, как ей быть, как тут горю пособить. Но вот снова открылась дверь, явился маленький человечек и спросил:

– Что ты дашь мне за то, если я перепряду тебе солому в золото?

– Дам тебе колечко с пальца, – ответила девушка.

Взял человечек кольцо, начал снова жужжать веретеном и к утру перепрял всю солому в блестящую золотую пряжу.

Увидел король золото, обрадовался, но ему и этого показалось мало, и велел он отвести мельникову дочку в ещё большую комнату, а соломы в ней было полным-полно. И сказал ей король:

– Ты должна всё это за ночь перепрясть. Если тебе это удастся, станешь моей женой.

«Хоть она и дочь мельника, – подумал он, – но жены богаче её мне во всём свете не найти».





Qiz yana yolg'iz qolibdi. Kichkina odamcha uchinchi safar paydo bo'lib, qizdan:

– Agar bu gal ham senga poxolni yigirib bersam, evaziga nima berasan? – deb so'rabdi.

– Senga berishga hech vaqoyim yo'q, – debdi qiz.

– Unda, malika bo'lgach, menga to'ng'ich farzandingni berishga va'da ber, – debdi mitti odamcha.

«Kim biladi kelajakda nimalar yuz beradi? – deb o'ylabdi tegirmonchining qizi. – Ko'naveray-chi, keyin bir gap bo'lar». U odamchaga so'raganini va'da qilibdi. Odamcha yana bir karra poxolni yigirib, oltinga aylantiribdi.

Qirol ertalab xonaga kirib hammasi o'zi istaganidek bajarilganini ko'ribdi. U to'y qilib qizga uylanibdi. Tegirmonchining qizi malikaga aylanibdi.


Oradan bir yil o'tgach, malikaning ko'zi yorib chaqaloqlik bo'libdi. Mitti odamchaga bergan va'dasini esa unutib yuboribdi.

Biroq kutilmaganda bir kuni mitti odamcha uning xonasiga kirib kelib:

– Endi menga va'da qilganingni ber, – debdi.

Malika qo'rqib ketibdi. Bolasining o'rniga unga qirollikning barcha boyligini taklif qilibdi. Biroq odamcha ko'nmay:





Осталась девушка одна, и явился в третий раз маленький человечек и спрашивает:

– Что ты дашь мне за то, если я и на этот раз за тебя солому перепряду?

– Нет у меня ничего, что я бы могла тебе ещё дать.

– Тогда пообещай мне своего первенца, когда станешь королевой.

«Кто знает, как оно там ещё будет!» – подумала мельникова дочка. Да и как тут было горю помочь? Пришлось посулить человечку то, что он попросил. И человечек перепряд ей за это ещё раз солому в золото.

Приходит утром король, видит – всё сделано, как он хотел. Устроил он тогда свадьбу, и прекрасная дочь мельника стала королевой.

Прошёл год, и родила она прелестное дитя, а о том человечке и думать позабыла. Как вдруг входит он к ней в комнату и говорит:

– А теперь отдай мне то, что обещала.

Испугалась королева и стала ему предлагать богатства всего королевства, чтобы он только согласился оставить ей дитя. Но человечек сказал:



– Menga dunyoda bolang aziz, – debdi.

Yig‘lab, g‘amga botgan malikaga mitti odamchanning rahmi kelibdi.

U:

– Senga uch kun muhlat beraman, shu vaqt ichida ismimni topa olsang, bolang o‘zingda qoladi, – debdi.

Malika qachonlardir eshitgan barcha ismlarni yodiga olibdi, choparni butun mamlakat bo‘ylab aylanib, dunyodagi boshqa yangi ismlarni bilib kelishga jo‘natibdi. Ertasi kuni ertalab mitti odamcha uning oldida hozir bo‘libdi. Malika Kaspar, Melxior, Baltazar deya o‘zi bilgan ismlarni tartib bilan aytib chiqibdi. Har bir ismdan so‘ng odamcha:

– Yo‘q, bu mening ismim emas, – deyaveribdi.

Malika keyingi kuni qo‘shnilarining ismlarini so‘rab-surishtirib, mitti odamchaga kamyob, odatiy bo‘lmagan ismlarni ayta boshlabdi.

– Isming balki O‘laksa Qirchang‘idir, yoki Qo‘yning Oyog‘i, yo bo‘lmasa, Qiyshiq Oyoqmi?

Mitti odamcha:

– Yo‘q, mening ismim boshqa, – deyaveribdi.

Uchinchi kuni chopar qaytib kelib, malikaga:

– Men birorta ham yangi ismni topolmadim. Biroq uzoqdagi qalin o‘rmon bilan qoplangan baland tog‘ga chiqib, u yerda qarshisida gulxan yonib turgan kichkina uychani ko‘rdim. Bir alomat, kulgimni qistatgan odamcha gulxan ustidan bir oyoqda sakrab:





– Нет, живое мне милей всех сокровищ на свете.

Опечалилась королева, заплакала, и сжалился над ней человек.

– Даю тебе три дня сроку, – сказал он, – если за это время ты моё имя узнаешь, то пускай твоё дитя у тебя останется.

Королева всю ночь вспоминала разные имена, которые когда-либо слышала, и отправила гонца по всей стране разведать, какие есть ещё имена на свете. На другое утро явился человек, и начала она перечислять имена, начиная с Каспара, Мельхиора, Бальтазара, и назвала по порядку все имена, какие знала, но на каждое имя человек отвечал:

– Нет, меня зовут иначе.

На другой день королева велела разузнать у соседей, как их зовут, и стала называть человечку необычные и редкие имена:

– А может, тебя зовут Дохлая Кляча, или Баранья Нога, или Косолапый?


Но он всё отвечал:

– Нет, меня зовут иначе.

На третий день вернулся гонец и сказал:

– Ни одного нового имени найти я не мог, но вот забрёл я далеко-далеко, к высокой горе, покрытой густым лесом, и увидел там маленькую избушку, пылал перед нею костёр, а через него скакал смешной, забавный человек, он прыгал на одной ножке и кричал:





– Hozir non yopaman, erta pivo qaynataman,  
Malikaning bolasin bugun tortib olaman.  
Qanday yaxshi ismim bor, uni hech kim bilmaydi,  
Lash-lushvoy ekanligim xayoliga kelmaydi!

deb qo‘shiq aytdi, – debdi.

Malika bu ismni eshitib xursand bo‘lib ketibdi.

Tez orada uning oldiga yana o‘sha odamcha kelib:

– Xo‘sh, malika, mening ismimni topdingmi? – deb so‘rabdi.

Malika avval undan:

– Balki Kunsdirsan? – deb so‘rabdi.

– Yo‘q, – debdi odamcha.

– Ehtimol, Geysndirsan? – debdi malika.

– Yo‘q, – debdi odamcha.

– Balki isming Lash-lushvoydir? – debdi malika.

– Buni senga shayton aytgan, shaytonning o‘zi aytgan! – deb o‘kirib yuboribdi mitti odamcha alam bilan yer tepinib. Shu onda beligacha yerga botib ketibdi. So‘ng chap oyog‘ini g‘azab bilan changallab o‘zini ikki bo‘lakka bo‘lib tashlabdi.



*– Нынче пеку, завтра пиво варю,  
У королевы дитя отберу;  
Как хорошо, что никто не знает,  
Что Хламушкой меня называют!*

И обрадовалась же королева, услышав это имя! Вскоре к ней в комнату явился опять человечек и спросил:

– Ну, госпожа королева, как же меня зовут?

А она сначала спросила:

– Может быть, Кунц?

– Нет.

– А может быть, Гейнц?

– Нет.

– Уж не Хламушка ли ты?

– Это тебе сам чёрт подсказал, сам чёрт подсказал! – завопил человечек и так сильно топнул со злости ногой, что провалился в землю по самый пояс. А потом схватил в ярости обеими руками левую ногу и разорвал себя пополам.







*Tarjimon Abdurahmon Akbar*

# Ushog'oy




*Русская сказка в обработке А. Толстого*

# Хаврошечка







**D**unyoda yaxshi odamlar ham bor, yomon odamlar ham bor, hatto o'z aka-ukalariga yomonlik qilishdan toymaydiganlar ham topiladi. Ushog'oy ana shunday odamlarning qo'liga tushib qolibdi. U yetim bo'lib, o'sha odamlar uni boqib olishibdi. So'ng ishga ko'mishib, tinkasini quritib yuborishibdi: u tikar, yigirar, uyni artib-supurar va hamma narsaga o'zi javob berar ekan.

Sohibasining uchta qizi bor ekan. Kattasining ismi Birko'zoy, o'rtanchasining ismi Ikkiko'zoy, kenjasining ismi Uchko'zoy ekan.

Ular darvoza oldida o'tirib, ko'chaga qarashdan boshqani bilishmas ekan. Ushog'oy bo'lsa ular uchun ham mehnat qilar: tikib-bichar, ip yigirar, yamar, biroq bir og'iz ham iliq so'z eshitmas ekan.

Ushog'oy dalaga chiqib ola sigirini bo'ynidan quchoqlab unga o'zining og'ir hayotini hikoya qilib, zorlanibdi:

– Sigirjonim, – onajonim, meni urib-koyishadi, non berishmaydi, yig'lashga ham qo'yishmaydi. Ertagacha besh pud ipni yigirib, to'qib, oqlab yana o'rab ham qo'yarmishman.

Sigir uning gaplarini eshitib:

– Go'zal qizcha, bir qulog'imdan kirib, ikkinchisidan chiqsang, hammasi aytganingdek bo'ladi, – debdi.


Shunday bo'libdi ham. Ushog'oy sigirning bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqqan ekan, hammasi tayyor bo'libdi: ip yigirilib, oqlanib, o'ralib qolibdi.

Qiz bo'zni sohibasiga olib borib beribdi. Sohibasi uni silab, inqillab sandiqchaga solib qo'yibdi va Ushog'oyga yana-da ko'p yumush buyuribdi.

Ushog'oy ona sigirning yoniga kelibdi. Uni quchoqlab, silab-siypabdi. Bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqibdi, tayyor bo'lgan ishini yana sohibasiga eltibdi.

Sohiba hayron bo'lib, qizi Birko'zoyni yoniga chaqiribdi. Unga:





**Е**сть на свете люди хорошие, есть и похуже, есть и такие, которые своего брата не стыдятся. К таким-то и попала Крошечка-Хаврошечка. Осталась она сиротой, взяли её эти люди, выкормили и над работой заморили: она и ткёт, она и прядёт, она и прибирает, она и за всё отвечает.

А было у её хозяйки три дочери. Старшая звалась Одноглазка, средняя – Двуглазка, а меньшая – Триглазка.

Дочери только и знали, что у ворот сидеть, на улицу глядеть, а Крошечка-Хаврошечка на них работала: их и обшивала, для них пряла и ткала – и слова доброго никогда не слыхала.

Выйдет, бывало, Крошечка-Хаврошечка в поле, обнимет свою рябую коровку, ляжет к ней на шейку и рассказывает, как ей тяжело жить-поживать:

– Коровушка-матушка! Меня бьют-журят, хлеба не дают, плакать не велят. К завтрашнему дню мне велено пять пудов на прясть, наткать, побелить и в трубы покатать.

А коровушка ей в ответ:


– Красная девица, влезь ко мне в одно ушко, а в другое вылезь – всё будет сработано.


Так и сбывалось. Влезет Хаврошечка коровушке в одно ушко, вылезет из другого – всё готово: и наткано, и побелено, и в трубы покатано.

Отнесёт она холсты к хозяйке. Та поглядит, побряхтит, спрячет в сундук, а Крошечке-Хаврошечке ещё больше работы задаст.

Хаврошечка опять придёт к коровушке, обнимет её, погладит, в одно ушко влезет, в другое вылезет – и готовенькое возьмёт, принесёт хозяйке.

Вот хозяйка позвала свою дочь Одноглазку и говорит ей:





– Yaxshi qizim, ko‘rkli qizim, borib qara-chi, bo‘zni yigirib, oqlab, o‘rashda yetimchaga kim yordam berayotgan ekan? – debdi.

Birko‘zoy Ushog‘oy bilan o‘rmonga boribdi, so‘ng dalaga jo‘nabdi, o‘tlar ustida uxlab, quyosh nurida toblanib onasining topshirig‘ini yodidan chiqaribdi. Ushog‘oy:

– Uxla, Birko‘zim, uxla, Birko‘zim, – deb uni uxlatib qo‘yibdi. Birko‘zoy uxlab yotgan paytda sigir ipni yigirib, oqlab, o‘rab – taxt qilib qo‘yibdi.

Shunday qilib, sohibasi hech narsani bilmay qolib, u bilan Ikkiko‘zoyni jo‘natibdi:

– Yaxshi qizim, ko‘rkli qizim, borib bilgin-chi, bo‘zni yigirib, oqlab, o‘rashda yetimchaga kim yordam berayotgan ekan.

Ikkiko‘zoy Ushog‘oy bilan birga jo‘nab onasining topshirig‘ini unutibdi: quyoshda toblanib, o‘tlar ustida yonboshlab yotibdi.

Ushog‘oy:

– U ko‘zingni ham yum, bu ko‘zingni ham yum, – deb alla aytibdi. Ikkiko‘zoyni ko‘zlari yumilib, uxlab qolibdi. Sigir ipni yigirib, oqlab, o‘rab bo‘lguncha ham uxlayveribdi.



– Дочь моя хорошая, дочь моя пригожая, поди догляди, кто сироте помогает: и ткёт, и прядёт, и в трубы катает?

Пошла Одноглазка с Хаврошечкой в лес, пошла с нею в поле, да забыла матушкино приказание, распеклась на солнышке, разлеглась на травушке. А Хаврошечка приговаривает:

– Спи, глазок, спи, глазок!

Глазок у Одноглазки и заснул. Пока Одноглазка спала, коровушка всё наткала, и побелила, и в трубы скатала.

Так ничего хозяйка не дозналась и послала вторую дочь – Двуглазку:

– Дочь моя хорошая, дочь моя пригожая, поди догляди, кто сироте помогает.


Двуглазка пошла с Хаврошечкой, забыла матушкино приказание, на солнышке распеклась, на травушке разлеглась. А Хаврошечка баюкает:

– Спи, глазок, спи, другой!

Двуглазка глаза и смежила. Коровушка наткала, побелила, в трубы накатала, а Двуглазка всё спала.







Kampir xafa bo'libdi. Uchinchi kuni yetimcha Ushog'oyga bir dunyo yumush buyurib, uchinchi qizi – Uchko'zoyni u bilan jo'natibdi.

Uchko'zoy sakrabdi, quvnabdi, o'ynabdi. Issiqdan loxas bo'lib, maysalar ustiga cho'zilibdi.

Ushog'oy:

– U ko'zingni ham yum, bu ko'zingni ham yum, – deb alla ayta boshlabdi. Yetim qizcha Uchko'zoyning uchinchi ko'ziga alla aytishni unutibdi.

Uchko'zoyning ikkita ko'zi uyquga ketibdi, uchinchisi uxlamay, hammasini: Ushog'oyning sigirning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan tayyor bo'z bilan chiqqanini ko'ribdi.



Старуха рассердилась и на третий день послала третью дочь – Триглазку, а сироте ещё больше работы задала.


Триглазка попрыгала, попрыгала, на солнышке разморилась и на травушку упала.


Хаврошечка поёт:

– Спи, глазок, спи, другой!

А о третьем глазке и забыла.

Два глаза у Триглазки заснули, а третий глядит и всё видит: как Хаврошечка корове в одно ушко влезла, в другое вылезла и готовые холсты подобрала.





Kampir xafa bo'libdi. Uchinchi kuni yetimcha Ushog'oyga bir dunyo yumush buyurib, uchinchi qizi – Uchko'zoyni u bilan jo'natibdi.

Uchko'zoy sakrabdi, quvnabdi, o'ynabdi. Issiqdan loxas bo'lib, maysalar ustiga cho'zilibdi.

Ushog'oy:

– U ko'zingni ham yum, bu ko'zingni ham yum, – deb alla ayta boshlabdi. Yetim qizcha Uchko'zoyning uchinchi ko'ziga alla aytishni unutibdi.

Uchko'zoyning ikkita ko'zi uyquga ketibdi, uchinchisi uxlamay, hammasini: Ushog'oyning sigirning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan tayyor bo'z bilan chiqqanini ko'ribdi.



Старуха рассердилась и на третий день послала третью дочь – Триглазку, а сироте ещё больше работы задала.


Триглазка попрыгала, попрыгала, на солнышке разморилась и на травушку упала.


Хаврошечка поёт:

– Спи, глазок, спи, другой!

А о третьем глазке и забыла.

Два глаза у Триглазки заснули, а третий глядит и всё видит: как Хаврошечка корове в одно ушко влезла, в другое вылезла и готовые холсты подобрала.





Uchko'zoy uyga qaytib, ko'rganlarini onasiga aytib beribdi.

Kampir sevinib ketibdi. Keyingi kuni erining oldiga borib:

– Ola sigirni so'ying! – debdi.

Chol hayron bo'lib:

– Senga nima bo'ldi, kampir, aqldan ozdingmi? Sigir yosh, yaxshi-ku, – debdi.

– So'ying dedimmi, so'ying! – debdi kampir.

Na iloj! Chol pichog'ini charxlay boshlabdi. Bundan xabar topgan Ushog'oy dalaga yuguribdi, ola sigirni quchib, unga:

– Sigirjonim – onajonim, seni so'yishmoqchi, – debdi.

Sigir qizga:

– Sen, go'zal qizcha, mening go'shtimni yema, suyaklarimni yig'ib, ro'molchaga o'rab, bog'ga ko'mib qo'y va meni unutma: har tong suyaklarimga suv quyib tur, – debdi.

Chol sigirni so'yibdi. Ushog'oy sigirning hamma aytganlarini bajaribdi: och qolsa ham go'sht yemabdi, suyaklarini bog'ga ko'mib, har kuni suv quyibdi.

Suyaklardan shunaqangi olmalar o'sib chiqibdiki, asti qo'yaverasiz!

To'lishib pishgan olmalar kumush novdalarini egib, shamolda oltin barglarini shitirlatar emish. O'tgan ham, ketgan ham to'xtab ularni tomosha qilarmish.

Oradan ozmi-ko'pmi vaqt o'tib, Birko'zoy, Ikkiko'zoy va Uchko'zoy bog' aylangani chiqishibdi. Xuddi shu paytda yosh, ko'rkam, jingalak soch bir bahodir yigit bog' yonidan o'tib qolibdi. U bo'liq olmalarni ko'rib, qizlarga:

– Hoy, zebo qizlar, qaysi biringiz menga olma olib kelsangiz, o'shaningizga uylanaman, – debdi. Uch opa-singil bir-biridan o'zib olma daraxtining yoniga borishibdi.


Qo'l cho'zsa yetadigan bo'lib egilib turgan olmalar yuqoriga ko'tarilib, boshlaridan oshib ketibdi.

Qizlar olmalarni qoqishmoqchi bo'lishgan ekan, ko'zlariga barglar tushibdi. Uzishmoqchi bo'lishgan ekan, sochlari shoxlarga o'ralib qolibdi. Qancha urinib, harakat qilishmasin, olma olisholmabdi, qo'llari tilingani qolibdi, xolos.

Ushog'oy kelgan ekan, shoxlar unga ta'zim qilibdi, olmalar oldiga tushibdi. U bahodir yigitni olmalar bilan mehmon qilibdi. Yigit Ushog'oyga uylanibdi. Yetim qiz g'am-qayg'uni bilmay, yaxshi yashab, murod-u maqsadiga yetibdi.







Триглазка вернулась домой и матери всё рассказала.

Старуха обрадовалась, на другой же день пришла к мужу:

– Режь рябую корову!

Старик и так и сяк:

– Что ты, старуха, в уме ли! Корова молодая, хорошая!

– Режь, да и только!

Делать нечего. Стал точить старик ножик. Хаврошечка про это спознала, в поле побежала, обняла рябую коровушку и говорит:

– Коровушка-матушка! Тебя резать хотят.

А коровушка ей отвечает:

– А ты, красная девица, моего мяса не ешь, а косточки мои собери, в платочек завяжи, в саду их схорони и никогда меня не забывай: каждое утро косточки водой поливай.

Старик зарезал коровушку. Хаврошечка всё сделала, что коровушка ей завещала: голодом голодала, мяса её в рот не брала, косточки её зарыла и каждый день в саду поливала.

И выросла из них яблонька, да какая! Яблочки на ней висят наливные, листья шумят золотые, веточки гнутся серебряные. Кто ни едет мимо – останавливается, кто проходит близко – заглядывается.

Много ли времени прошло, мало ли – Одноглазка, Двуглазка и Триглазка гуляли раз по саду. На ту пору ехал мимо сильный человек – богатый, кудреватый, молодой. Увидел в саду наливные яблочки, стал затрагивать девушек:

– Девушки-красавицы, которая из вас мне яблочко поднесёт, та за меня замуж пойдёт.

Три сестры и бросились одна перед другой к яблоне.

А яблочки-то висели низко, под руками были, а тут поднялись высоко, далеко над головами.

Сёстры хотели их сбить – листья глаза засыпают, хотели сорвать – сучки косы расплетают. Как ни бились, ни метались – руки изодрали, а достать не могли.

Подошла Хаврошечка – веточки к ней приклонились, и яблочки к ней опустились. Угостила она того сильного человека, и он на ней женился. И стала она в добре поживать, лиха не зная.

